

AHOLI ORASIDA YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARINI UCHRASHI

Alimova Zebiniso Farhodjon qizi

Termiz iqtisodiyot va servis unverstituti,

Tibbiyot fanlar kafedrasi

e-mail: zalimova230@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurak-qon tomir sistemasi kasalliklari tarqalish darajasini, kasallik kelib chiqish sabablari baxolash o'rganildi. Tekshiruvmizdagi bemorlardan 44 nafar (46%) ni yurak-qon tomir kasalliklarini tashkil etgan. Kasallanish erakalarga nisbatan ayollarda ko'proq 1,6 marta kop uchraganligi sababli, aholi orasida ayniqsa ayollar orasida yurak-qon tomir kasalliklari bilan kasallanishning oldini olish uchun profilaktika ishlarini olib borishni kuchaytirish kerak.

Kalit so'zlar: Surhondaryo , arterial gipertenziya, stenokardiya, revmatoid artrit, aholi.

Аннотация: Аннотация: В данной статье изучена оценка распространенности заболеваний сердечно-сосудистой системы и причины возникновения заболевания. У 44 (46%) пациентов в нашем исследовании были сердечно-сосудистые заболевания. Поскольку у женщин заболевание встречается в 1,6 раза чаще, чем у мужчин, необходимо усилить профилактические мероприятия по предупреждению сердечно-сосудистых заболеваний среди населения, особенно среди женщин.

Ключевые слова: сердечная недостаточность , артериальная гипертензия, стенокардия, ревматоидный артрит, население.

Annotation: In this article, the assessment of the prevalence of cardiovascular system diseases and the causes of the disease was studied. 44 (46%) of the patients in our study had cardiovascular diseases. Since the disease is 1.6 times more common in women than in men, it is necessary to strengthen preventive measures to prevent cardiovascular diseases among the population, especially among women.

Key words: Surkhandarya , arterial hypertension, stenocardia, rheumatoid arthritis, population.

Muammoning dolzarbliyi: Hozirgi kunda aholi orasida yurak ishemik kasalligi, stenokardiya, miokard infarkti va uning oqibatida kelib chiqadigan turli xil asoratlar, ya'ni surunkali yurak etishmovchiligi, yurak ritmining buzilishi, gipertoniya kasalligi va uning oqibatida kelib chiqadigan miya insulti, yurakning tug'ma nuqsonlari kabi kasalliklar ko'p uchramoqda [1].

Yurak-qon tomir kasalliklarni keltirib chiqaradigan sabablari bu-kam harakat, chekish va hayvon yog`larini ko'p iste'mol qilish bo'lib hisoblanadi. Yurak qon tomir tizimi patologiyasi hozirgi zamон tibbiyotining ijtimoiy -tibbiy muammolaridan biri hisoblanadi [2]

Barcha o'lim holatlariiga 13% yuqori arterial qon bosimi (AQB) sabab bo'lib, ulardan 51% insult va 45% yurak ishemik kasalliklardan keyin sodir bo'lmoqda»1. EAG kelib chiqishi bolalik davridan boshlanib, 40% dan 60% gacha bolalarda, keyinchalik kattalik davrida, yurak ishemik kasalligi va gipertoniya kasallikka o'tadi [3]

Bugungi kunda bolalar o'limi darajasi 1000 ta tirik tug'ilgan bolalarda 15,6% to'g'ri kelishiga qaramasdan bolalar tug'ilishi ko'rsatkichi juda past, yani 9,1% tashkil qilmoqda [5-7]

Yurak qon tomir kasalliklari dunyo bo'yicha hozirgi kunga qadar nogironlik va o'limning asosiy sababi bo'lib qolmoqda. Jahan sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra barcha o'lim xolatlarining 56% yurak-qon tomir tizimi kasalliklari oqibatida kelib chiqadi [4-6].

65 yoshgacha bo'lган shaxslarda YuIK dan o'lim so'nggi 20 yil ichida 50% kamaygan bo'lsa ham umumiyl o'lim soni o'zgarmay qolmoqda. Yoshi 65 yoshgacha bo'lган erkaklarda YuIK dan o'lish ayollardagiga qaraganda 3 marta yuqori. Bundan katta yoshdagilarda ikkala jinsdagi o'lim soni tenglashadi, 80 yoshdan keyin esa ayollarda o'lim erkaklarga nisbatan 2 marta ko'proq [5].

Tadqiqod maqsadi: Aholi orasida yurak qon tomir kasalliklaridan qaysi kasallik turi ko'proq uchrashishi va jinslari bo'yicha tarqalishini o'rghanish.

Tadqiqod obekti: Tekshiruv Surhondaryo viloyati kop tarmoqli tibbiyot markazi Terapiya bulimida yotib davolangan 95 nafar bemorlarda olib borildi. Tekshiruvdagi bemorlardan shikoyatlari, anamnez ma'lumotlari, laborator (umumiyl qon, qon biohimik), instrumental (EKG, UTT, Rentgenografiya) tekshiruvlari olib borildi.

Tadqiqod natijasi: O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra mart oyida davolangan 95 ta kishining kasallik tarixi o'rganildi. Bu kasallarning ichida 44 nafar yurak-qon tomir kasalliklari bilan davolangan, bo'lib yurak-qon tomir kasalligi bilan kasallanish 46% ni tashkil etadi. Tekshiruvmizdagi 44 nafar bemorlarning yurak-

qon tomir kasalliklari bor o'rganilganda ularning ichida birinchi o'rinni qon bosimining ko'tarilishi (arterial gipertenziya) egallagan, bu kasallik bilan 27 nafar (62%) bemor, ikkinchi o'rinni yurak ishemik kasalligi 11 nafar bemor (25%) va uchinchi o'rinda revmatoid artrit kasalligidan 6 nafar bemor (13,6%) ni tashkil etgan. Yurak ishemik kasaligidan 11% bemorlarda nostabil stenokardiya ustunligi aniqlandi.



Yurak- qon tomir kasalliklari bilan kasallangan 44 ta bemorning jinsi bo'yicha o'rganganda quyidagi natijalar olindi: umumiy bemorlardan erkaklar 17 nafar (38,63%), ayollar 27 nafar (61,36%) ni tashkil etadi.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqotlar natijasida terapiya bo'limida davolangan bemorlardan 44 nafar 46% ni yurak-qon tomir kasalliklarini tashkil etgan. Ayniqsa, arterial gipertoniya kasalligi 27 nafar 62% bemorlarda aniqlandi. Kasallanish erkaklarga nisbatan ayollarda ko'proq 1,6 marta kop uchraganligi sababli, aholi orasida ayniqsa ayollar orasida yurak-qon tomir kasalliklari bilan kasallanishning oldini olish uchun birlamchi tibbiy-sanitar yordam muassasalarida sanitariya targ'ibot ishlarini (sog'lom turmush tarzini) olib borishni yanada takomillashtirish nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Ахмедова Ф.М. Прогностическое значение факторов воспаления при формировании эссенциальной артериальной гипертензии у детей. Педиатрия. – Ташкент, 2019. – №3. – С. 21–25.
- Беляева Л.М. Детская кардиология и ревматология: Практическое руководство. 2011 г.

- 3 Носыров.Ш.Н., Собиров Д.М. – Артериальная гипертония. Тошкент, 2002 г
- 4 Шарапов У.М. - Ички касалликлар. Т. 2007 й.
5. Султонов.Р.К, Содикова.З.Ш, Бобоёров.С.У. Dynamics of fat cells of the bronchial tree mucosa in postnatal ontogenesis. // Central Asian Journal of Medical and Natural Science (CAJMNS) –Toshkent. Volume 2 № 4, 2021. C. 182-184.
6. Назиров. Ф. Ф. Гадаев. А. Г. “Умумий амалиёт врачи учун қўлланма” – М.: ГЭОТАР – Медиа, 2006.
7. Sultonov, Ravshan Komiljonovich, Zumrat Shavkatovna Sodiqova, and Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li. "Dynamics of Fat Cells of the Bronchial Tree Mucosa in Postnatal Ontogenesis." Central Asian Journal of Medical and Natural Science 2.4 (2021): 182-184.